

## DALA SHAROITIDA TURLI XIL EKINLARDAN FOYDALANGAN HOLATDA TADQIQOT OLIB BORISH USULLARI

Musurmanova Mohinur Murot qizi

Guliston davlat universiteti

Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrasida katta o'qituvchisi

[ioniqulova95@mail.ru](mailto:ioniqulova95@mail.ru)

**Abstract:** Maqolada turli xil ekinlardan fatseliya, xantal, raps, suli, javdarlardan foydalangan holatda tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha hamda tadqiqot olib borish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Turli siderat ekinlarining g'o'za hosildorligiga ta'siri o'rganilgan

**Keywords:** tuproq, siderat, fatseliya, xantal, raps, suli, javdar, g'o'za, unumdorlik, biomassa.

### KIRISH

Hozirgi vaqtda dunyo tuproqlarining 33 foizi degradatsiyaga uchragan bo'lib, bu jarayon yanada kuchayib bormoqda. Tuproqdan noto'g'ri foydalanish natijasida tuproq unumdorligi pasayib bormoqda. Bu gumus miqdorining kamayishi, oziqa moddalari balansining buzilishi, tuproq eroziyasi, tuproq ifloslanishi va sho'rlanishi, o'g'itlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida yuz bermoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlarida tuproqlarning hozirgi holatini, ularni tabiiy va antropogen omillar ta'sirida o'zgarishini aniqlash, tuproq unumdorligini saqlashda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tuproq unumdorligini oshirish maqsadida quyidagi tajribalarni amalga oshirdim

Tajribalarda suli, javdar, fatseliya, xantal va raps ekinlari kuzgi va bahorgi muddatlarda ekildi, tuproq xossalariga va undan keyin ekilgan g'o'za hosildorligiga ta'siri o'rganildi.

Tajribadagi har bir paykalning yuzasi 50 m<sup>2</sup> (uzunligi 10 m, eni 5,0 m), hisoblanadigan maydon 25 m<sup>2</sup> bo'lib, paykallar sistematik ravishda bir yarusli qilib joylashtirildi.

Siderat ekinlarni o'stirish, ularda tahlil, kuzatish ishlarini o'tkazish «Методика Государственного сортоиспытание сельскохозяйств–венных культур» [1.8. 239–s.], «Методика проведения полевых и вегетационных опытов с кормовыми культурами» [1.9. 285–s.] nomli qo'llanmalar asosida o'tkazildi.

### Siderat ekinlarining joylashish sxemasi

№	Yozgi sideratsiya
1	Nazorat–sideratsiz
2	Suli
3	Javdar
4	Fatseliya
5	Xantal
6	Raps

Tajriba dalasida qo'llanilgan barcha texnologik tadbirlar fermer xo'jaligida qabul qilingan texnologik xarita (biznes reja) asosida bajarildi.

Turli siderat ekinlarning paxtachilikdagi samaradorligini o'rganish uchun birinchi tajribada bug'doy yig'ishtirib olingandan so'ng yozda (10 iyul) siderat ekinlari ekilib, yetishtirilgan yashil biomassa kech kuzda og'ir deskli (BDT-2,2) borana bilan yerga maydalanib, PD-3-35 qo'sh yarusli plug bilan yerga ko'mib yuborildi. Ana shu yerda siderat ekinlarning g'o'za hosildorligiga ta'siri kuzatildi.

Ikkinchi tajribada g'o'za hosili yig'ishtirib olingandan so'ng, g'o'zadan bo'shagan maydonga kuzda oktabr oyining 10 chi sanasida ekilib, bahorda og'ir deskli (BDT-2,2) borana bilan yerga maydalanib, PD-3-35 qo'sh yarusli plug bilan yerga ko'mib yuborildi. So'ngra yer maxsus texnologiya bo'yicha ekishga tayyorlanib, chigit ekildi va turli siderat ekinlarining

Yaqin vaqtlargacha siderat ekinlarining keng rivojlanishiga to'siq bo'lib kelgan muammolardan biri-siderat ekinlar ekilgandan so'ng bunday yerlarga paxta ekilganda uning ko'chatlari siyrak bo'lib qolishi edi. Yerni haydash va ekishga tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilgan yangi usul siderat ekindan keyin to'liq ko'chatlar olish masalasini hal etdi.

Mazkur usulda siderat ekinlarining organik qoldiqlari qattiqlanishidan oldin yerga haydab yuboriladi. Bunday organik moddalar tarkibi kam harakatchan uglevotlar bilan to'yinmagan bo'lib, uni yerga aralashtirib haydab yuborilganda tezda parchalanadi va minerallashadi.

Vegetatsiya davrida sug'orish, o'g'itlash kabi texnologik tadbirlar o'tkazish bilan birga ularda fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchashlar olib borilib, ho'l va quruq biomassa hosili, ildiz massasi aniqlab borildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Kuziev R.K., Arabov S.A., Axmedov A.U. Otsenka meliorativnogo sostoyaniya oroshayemyx pochv golodnoy stepi i voprosy regulirovaniya vodno-solevogo rejima. - J. Pochvovedenie i agroximiya. -2014;(1):- S. 28-31.

2. Turdimetov Sh., Musurmanova M. Properties of Soils located in different Geomorphological Conditions. American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations. Volume 02 Issue 11-2022. pp 01-06.

3. Musurmanova M.M. Turdimetov Sh.M. Sideratlarining tuproq unumdorligini oshirishidagi ahamiyati. // Pedagog respublika ilmiy jurnali. 2024. 7 – Tom, 3 – Son. B. 95-97.

4. Musurmanova M.M. Turdimetov Sh.M. Siderat ekinlarni ekishda begona o'tlarning tarqalishini oldini olish va ularga qarshi agrotexnik kurashish choralari. // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2024. 28-son. B. 72-75.